

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

SARIBAYEVA Nigargul Bauetdinovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi

va agrotexnologiyalar instituti

“Gumanitar fanlar va tillar” kafedrası

assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14679647>

MAMLAKATIMIZDA JAMOATCHILIK FIKRINING SHAKLLANISHI: NAZARIY VA AMALIY BOSQICHLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimizda jamoatchilik fikrining tarixiy rivojlanishi, uning bosqichlari va hozirgi zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, jamoatchilik fikrining nazariy asoslari, uning shakllanishiga ta‘sir qiluvchi omillar va amaliy rivojlanish bosqichlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, Sharq va G‘arb mutafakkirlari hamda o‘zbek olimlarining jamoatchilik fikriga oid qarashlari va bildirgan fikrlari haqida so‘z boradi.

Kalif so‘z: jamoatchilik fikri, jamoatchilik nazorati, jamiyat, ijtimoiy, taraqqiyot, siyosiy, olimlar.

FORMATION OF PUBLIC OPINION IN OUR COUNTRY: THEORETICAL AND PRACTICAL STAGES

ANNOTATION

This article examines the historical development of public opinion in our country, its stages, and its significance in modern society. It also provides a detailed analysis of the theoretical foundations of public opinion, the factors influencing its formation, and the stages of its practical development. Additionally, the article discusses the perspectives and ideas of Eastern and Western thinkers as well as Uzbek scholars on public opinion.

Keywords: public opinion, public control, society, social, development, political, scholars.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается историческое развитие общественного мнения в нашей стране, его этапы и значение в современном обществе. Также проводится детальный анализ теоретических основ общественного мнения, факторов, влияющих на его формирование, и этапов практического развития. Кроме того, рассматриваются взгляды и идеи восточных и западных мыслителей, а также узбекских ученых о природе общественного мнения.

Ключевые слова: общественное мнение, общественный контроль, общество, социальное, развитие, политика, ученые.

Tarixdan ma'lumki, jamoatchilik fikri jamiyat hayotining muhim hisoblangan, rivojlanishiga turki bo'lgan asosiy vosita bo'lib kelgan. Mamlakatimiz tarixida ham jamoatchilik fikri shakllanishi o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, u siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan jamiyatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Jamoatchilik fikri kishilik jamiyatining muhim omillaridan biri sifatida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni belgilab beradi. Bu fikrlar tizimi fuqarolarning davlat boshqaruvida va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda jamoatchilik fikrining shakllanishi va uning ijtimoiy hayotga ta'siri sezilarli darajada oshmoqda.

Jamoatchilik fikriga olimlar qarashlari jamoatchilik fikriga mutaxassislar nigohidan nuqtai nazari V.S.Korobeynikov "Feodalizm o'zining bo'linish xususiyati tufayli jamoatchilik fikrining guruhlar fikri sifatida qaror topishi va shakllanishida o'z izini qoldirdi" [1] – deya, Italiyalik mutafakkir Makiavelli "Hukmdor" asarida jamoatchilik fikrining ko'p qirrali ekanligini alohida aytib o'tadi hamda siyosiy ong va siyosiy xatti-harakatni yoritish maqsadida olim jamoatchilik fikrini ham o'rganadi.

U xalqni ulkan kuch sifatida ta'riflab, u hukmdorning mustahkam asosi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u o'z asarida "tashqi dushmanlaridan ko'ra o'z xalqidan ko'proq qo'rqan hukmdor uchun qal'ani o'rab turuvchi devorlar foyda berishi mumkin, ammo o'z xalqidan emas, balki tashqi dushmanlardan hadiksiragan hukmdor uchun qal'alarining keragi yo'q... ularning eng katta himoyasi xalqining muhabbatidir" [2] – deb ta'kidlaydi, sotsiolog olim M.Ougl jamoatchilik fikri mohiyatini izohlashda yakdil nuqtai nazarning shakllanmaganligini bu boradagi ilmiy-nazariy muammolar haligacha yechim topmaganligini alohida kuyunib ta'kidlaydi [3, B.40].

Amerikalik sotsiolog Uolter Lipman "Jamoatchilik fikri bu kishilarning umumiy va jamoaviy manfaatlarini ifodasidir" [4, B.96] – deb ta'kidlaydi. Mashhur nemis faylasufi Gegel esa "Jamoatchilik fikri-xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir, jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy bo'lmagan narsalar chatishib ketsada, u har bir davrda katta kuchga ega bo'lib kelgan" [5] – deb o'z qarashlarini bayon etadi.

Insoniyat taraqqiyotining boshida ham jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi rolini o'ynagan. G'arbda ham Sharqda ham har doim jamoatchilik fikriga katta e'tibor berib kelingan. O'rta asr sharq hukmdori va mutafakkiri Ismoil Samoniyning fikriga ko'ra, har qanday jamoatchilik fikri boshqalarga nisbatan mehr va insonparvarlik munosabatlari yordamida tartibga solinishi va ijtimoiy foydali yo'nalishi berilishi mumkinligini izohlaydi [6, B.94].

O'zbek ilk davlatchiligini asoschisi Amir Temur jamoatchilik fikrini baholashda "... birgalikda bo'lish uchun barchani umumiy g'oya bilan asir qilish kerak" tamoyiliga amal qilgan [7, B.53]. Shuningdek, davlat boshqaruvida jamoatchilik fikri to'g'risida buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz o'zining «Temur tuzuklari» asarida saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilishlikni biz avlodlariga maslahat bergan:

- 1) O'zing bilan kengash;
- 2) Boshqalar bilan mashvaratu maslahat ayla;
- 3) Hushyorligu mulohazakorlik bilan qat'iy qaror chiqar;
- 4) Ehtiyotkor bo'l, chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlariyu aytgan gaplari xato bo'lgan johil kimsaga qiyoslash mumkin, uning so'zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik ila nadomat keltirgay.

Yana shuni ham bilgilkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka solish bilan bitur, tadbirlardan ogoh qilingandan keyin shuni aytish joizdirkim, qat'iylik, hushyorlik, ehtiyotkorlik, shijoat va sabr- chidam bilan barcha ishlar amalga oshirilgay. Vassalom» [8] – deb ta'kidlaganlarida jamoatchilik fikri ishtirokini ta'minlanishini nazarda tutgan.

XIX asrda Amerikaning “Atlantic Munsley” gazetasi noshiri Jeyms Lovel “Jamoatchilik fikri bosimi atmosfera bosimiga o‘xshaydi. U ko‘rinmaydi, lekin kvadrat dyuymiga o‘n olti futlik kuch bilan bosim o‘tkazadi. Ba’zida jamoatchilik fikrini “noma’lum xudo, uning oldida ular nafrat bilan masxara qilishadi”, deb nomlanadi. Ammo, biz unga qanday munosabatda bo‘lishimizdan qat’iy nazar, bitta narsa shubhasiz bo‘lib qoladi: jamoatchilik fikri kuchli dinamik tizimdir” [9, B.86-95] – deb ta’kidlaydi.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab, fanda jamoatchilik fikri va uning haqqoniyligi kabi masalalarga nisbatan shubha bilan qarash urf bo‘lgan. Bu jamoatchilik fikri sotsiologiyasining o‘rganish doirasini qator yangi muammolar bilan boyitib, tadqiqot uchun zamin yaratmoqda. Ko‘p hollarda oddiy xalq va olimlar o‘rtasida ham jamoatchilik fikrining muhimligi va haqqoniyligi juda past baholanishi kuzatilmoqda. Misol uchun, P.Burdening “Jamoatchilik fikri mavjud emas” nomli dokladi yoki U.Lippmanning “jamoatchilik fikri rasional emas, yetarlicha emosional va voqealar rivojidan ortda qoladi, shuning uchun, jamoatchilik fikrini boshqaruv qarorlarini qabul qilish paytida asos sifatida qabul qilib bo‘lmaydi” [10, B.7] – degan fikrlari ham mavjud.

O‘zbek olimlaridan R.A.Ubaylullaev, O.B.Atamirzaevlar “jamoatchilik fikri jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va ma’naviy hayotining turli jihatlarini baholashda namoyon bo‘ladigan murakkab ma’naviy-axloqiy tizim, jamoat ongining maxsus shakli” [11, B.86-95] – deya izohlaydi, A.E.Shaymanova “Jamoatchilik fikri - xalq yondoshuvi xalq nuqtai nazari tarzidagi tushuncha” [12], M.Ergasheva “Jamoatchilik fikri xalq yondoshuvi yoxud xalq nuqtai nazari sifatida insoniyat jismoniy va ma’naviy kamoloti yo‘lida shakllangan tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy-tarixiy voqealar, davrlar va tajribalarni o‘zida aks ettiradi va shaxs faolligining shakllanishida katta rol o‘ynaydi” [13] – deya fikr bildirganlar.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda jamoatchilik fikri asosida samarali qaror qabul qilinishida O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-aprelidagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-474-sonli Qonunida berilgan shakllaridan jamoatchilik fikri – jamoatchilik muhokamasidan, eshituvidan, monitoringidan, ekspertizasidan o‘tkaziladi va keyingina qo‘llaniladi. Demak, shubhasiz, jamoatchilik fikri kishilarning u yoki bu hodisaga nisbatan bildirgan e’tiroziy yohud e’tirofiy munosabatlari, taklif va istaklari majmuidir. Shuningdek, bugungi kunda jamoatchilik fikri ijtimoiylashuvi, sotsiologiyaning eng ko‘p talab qilinayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamoatchilik fikrini o‘rganishdagi samarador mexanizm va texnologiyalarni yaratishdan tashqari, uni tashkil etish hamda dinamikasini aniqlashdan iborat. Bunda jamoatchilik fikrining ob’ekti va sub’ektini o‘rganish, muhim ijtimoiy institut sifatidagi faoliyatining muhim tendensiyalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda jamoatchilik fikri shakllanishining uzoq va boy tarixi bor. U xalqimizning madaniyati, an’analari va qadriyatlarini bilan uzviy bog‘liqdir. Keeling endi jamoatchilik fikrining tarixiy bosqichlarini ko‘rib chiqamiz:

1. **Qadimgi davrlar:** O‘zbek xalqi kishilik jamiyati insonlar orasida jamoatchilik fikrining shakllanishi dastlab urug‘-qabila jamiyatlarida boshlangan. Bu davrda aholi o‘rtasida qaror qabul qilishda oqsoqollar kengashlari, jamoaviy yig‘ilishlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ov qilishda va shunga o‘xshagan turli muammolarni hal etishda jamoaviy maslahatlashuv qadriyatlar va an’analariga tayanish asosiy yo‘l edi;

2. **O‘rta asrlar:** Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvining kuchayishi bilan jamoatchilik fikri yanada shakllana boshladi. Bu davrda:

- Movarounnahrda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi jamoatchilik fikrining kengayishiga sabab bo‘ldi;

- Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlarning asarlari xalqning ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi;

- Jamoatchilik fikri masjidlar, madrasalar va bozorlar kabi joylarda shakllanib, shu davrning rivojlanishiga jamoatchilik fikrining ta’siri sezilarli bo‘ldi.

3. Mustamlakachilik davri: XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida O'zbekistonda chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati davrida jamoatchilik fikriga nisbatan cheklovlar o'rnatilgan bo'lsa-da, bu davrda milliy uyg'onish harakati shakllandi. Jadidlar harakati orqali:

- Xalqni ma'rifatli qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar olib borildi;
- Matbuot vositalari (masalan, "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoi Turkiston")

jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim omilga aylandi.

4. Sovet davri: Sovet davrida jamoatchilik fikri ma'lum darajada nazorat ostida bo'lgan bo'lsa-da, u:

- Davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun vosita sifatida ishlatilgan.
- Kollektiv xo'jaliklar, ishchilar yig'ilishlari orqali davlatning manfaatlariga mos ravishda

shakllantirilgan.

- Shu bilan birga, o'zbek ziyolilari xalqning milliy qadriyatlarini asrash va rivojlantirishda jamoatchilik fikrini yashirin tarzda targ'ib qilishga harakat qilishgan.

5. Mustaqillik davri: Mustaqillik yillarida jamoatchilik fikri erkinlikka erishdi. Aslida, mustaqil O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 1997-yil 25-iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi PF-1791-son farmoni bilan asos solingan bo'lib, ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, 1997-yilning 9-iyul sanasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 343-sonli qarori qabul qilingan va jamoatchilik markazi o'z faoliyatini yurita boshladi va quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi:

- Fuqarolar jamiyati institutlari rivojlana boshladi;
- Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat olib borishi ta'minlandi;
- Demokratik tamoyillar asosida xalqning fikr-mulohazalari davlat boshqaruvida inobatga olinmoqda;

- Internet va ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim omilga aylandi.

Bularning barchasi jamoatchilik fikri va jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishi katta hissa qo'shdi.

Jamoatchilik fikri tushunchasi ma'no-mazmun nuqtai nazardan olib qaralganda, «jamo», «jamoatchilik», «fikir» so'zlarining mantiqiy uyg'unlashuvi mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikri texnikasi ildizi jamoa, jamiyatning rivojlanishiga taqalib, ularning takomillashuvi natijasida kelib chiqadi. Shu jihatlardan kelib chiqib, ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratamiz.

Jamo – kishilarning qadimdagi uyushuv shakli. Bunda ishlab chiqarish vositalari hammaning mulki hisoblangan. Jamiyat esa – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Jamoatchilik fikri esa jamiyatda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mavjud bo'lgan jarayonlarda ommaviy ong qarashlarida shakllanadi.

Jamoatchilik fikri – ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o'z ichiga oluvchi ommaviy ong shakli bo'lib, muayyan ijtimoiy masalalarni ma'qullash yoki qoralashda namoyon bo'ladi. Individlilar, ijtimoiy guruhlar xatti-harakatini va ijtimoiy munosabatlarda muayyan me'yorlarni belgilaydi, umuman, jamiyat doirasida ham, turli ijtimoiy guruhlar doirasida ham amal qiladi. Jamoatchilik fikrining faolligi va ahamiyati jamiyatning strukturaviy xarakteri, ishlab chiqaruvchi kuchlarning, madaniyatning, demokratik huquqiy me'yorlar va erkinliklarning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Masala, hozirgi kunda jamoatchilik fikri ta'lim sifatini oshirishda, hokimiyat organlarini saylashda, ommaviy kommunikasiya vositalarida, aholi so'rovlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy muloqotni o'rnatish jamoatchilik fikrini shakllantirish va faoliyati muammosini o'rganishning dolzarbligini anglatadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida jamoatchilik fikri texnikasi inson faoliyatining barcha sohalarida tez rivojlanib va takomillashib bormoqda. Shu o'rinda jamoatchilik fikri va jamoatchilik nazorati rivojlanishi va bugungi holatga kelishiga ayrim omillar ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan jamoatchilik fikri rivojlandi. Jumladan:

Axborot tarqatish – mustaqillikdan so'ng matbuot va elektron ommaviy axborot vositalari rivojlanib, xalqning turli masalalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyati kengayib, murojaatlarni qabul qilish elektronlashdi. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vositadir. Televizion dasturlar, gazeta va jurnallar, radioeshittirishlar, internet saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatilib, turli masalalarga nisbatan fikrlar shakllanadi. Axborotning haqqoniyligi va ishonchliligi jamoatchilik fikrining sog'lom shakllanishini ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati subyektlari orqali jamoatchilik fikri shakllanmoqda. Jumladan aholining xolisana fikri, xohish va istaklari asosida davlat idoralariга taklif va tavsiyalar kiritilmoqda. **Fuqarolik jamiyati institutlari** jamoatchilik fikrining holatini o'rganish uchun maxsus ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat mavjud holatni tahlil qilish, balki kelajakdagi tendensiyalarni prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va madaniyat – oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni ta'lim dargohidan boshlab erkin fikrlash, so'z erkinligi hamda har bir kishining fuqarolik pozitsiyasi to'g'risida tushunchalar va ko'rsatmalar berib borilmoqda;

Innovatsiyalar – raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi orasida muammolar bo'yicha tezkor fikr almashinuvi va muhokamalar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholining fikrini o'rganishda va jamoatchilik fikrini bilishda juda samarali vosita bo'lib kelmoqda. Jamoatchilik fikri shakllanishida milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarining o'rni beqiyosdir. Bu qadriyatlar jamiyat a'zolarining qarashlariga bevosita ta'sir qiladi.

Zamonaviy jamoatchilik fikrining ahamiyati so'ngi paytlarda ortib bormoqda. Hozirgi davrda mamlakatimizda jamoatchilik fikri siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish va fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Prezident farmonlari va qarorlarini tayyorlashda, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda aholi fikrini inobatga olish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Jamoatchilik fikri mamlakatimizda quyidagi bosqichlar orqali shakllanib va rivojlanib bormoqda:

1. *Axborot tarqatishda:*

- OAV orqali aholiga dolzarb masalalar yuzasidan to'liq va haqqoniy ma'lumot yetkazish.
- Onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muhokamalar tashkil etish va aholi fikrini yig'ish.
- Davlat va jamoat tashkilotlarining press-relizlari orqali ma'lumotlar yetkazish.

2. *Fuqarolar ishtirokida:*

- Ochiq muloqotlar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish orqali fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash.
- Mahalliy va respublika darajasidagi muammolarni hal qilishda fuqarolarni jalb etish.
- Elektron hukumat tizimlari orqali fuqarolarning ariza va takliflarini yig'ish.

3. *Tahlil va baholashda:*

- Sotsiologik tadqiqotlar va so'rovlar orqali aholining fikrlarini o'rganish.
- Olingan ma'lumotlarni davlat siyosatini shakllantirish va rivojlantirishda qo'llash.
- Tadqiqot natijalari asosida strategik qarorlar ishlab chiqish.

4. *Qarorlar qabul qilish va monitoring qilishda:*

- Jamoatchilik fikri asosida qonunchilik va normativ hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish.
- Davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini jamoatchilik fikriga moslashtirish.
- Qarorlarning ijrosi bo'yicha muntazam monitoring olib borish va natijalarni baholashdir.

Jamoatchilik fikri – bu bir guruh yoki umuman jamiyat a’zolari tomonidan muayyan masalalar yuzasidan shakllangan qarashlar, fikrlar va baholardir. Uning shakllanishi biz ko‘rib chiqayotgan nazariy asoslar va tamoyillarga asoslanadi. Jamoatchilik fikrining shakllanishi fuqarolarning fikr bildirish erkinligiga asoslanadi. Ushbu erkinlik mamlakat Konstitutsiyasi va tegishli qonunlar bilan kafolatlanadi. Demokratik tamoyillar jamoatchilik fikrining ochiqligi va xilma-xilligi uchun mustahkam asos yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoatchilik fikrini shakllantirish va rivojlantirish borasida bir qator muhim natijalarga erishildi. Xususan:

- “Ochiq eshiklar kuni”, davlat xizmatlari markazlari va boshqa mexanizmlar orqali xalqning ovozi eshitilmoqda;

- Prezident virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari orqali fuqarolar o‘z taklif va shikoyatlarini bevosita bildirish imkoniga ega bo‘ldi;

- Jamoatchilik fikri asosida qabul qilingan qarorlar natijasida turmush darajasi yaxshilanib, ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilib borilmoqda;

- Yoshlar bilan ishlashda ularning fikr-mulohazalarini hisobga olish ta’lim tizimining yanada rivojlanishiga olib kelmoqda;

- NNTlar va tashabbuskor guruhlar soni ortib, ularning jamoatchilik fikriga ta’siri kuchaymoqda. Bu esa fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda bunday tashkilotlarning o‘rni sezilarli darajada yuksalmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mustaqillik yillarida jamoatchilik fikrining erkinligi va ochiqligi ta’minlanib, uning davlat va jamiyat rivojlanishiga qo‘shgan hissasi ortib bormoqda. Kelgusida bu sohada amalga oshiriladigan islohotlar va innovatsiyalar jamoatchilik fikrining yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Jamoatchilik fikri – bu jamiyat rivojlanishining ko‘zgusi. U mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va samarali davlat boshqaruvini amalga oshirish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda jamoatchilik fikrining shakllanishi va uni amalda qo‘llash bosqichlari demokratik tamoyillar, fuqarolar faolligi va ishonchli axborot vositalari orqali yanada rivojlanmoqda. Kelgusida bu sohada amalga oshiriladigan islohotlar jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. СНОСКИ.

1. Korobeynikov V.S. Piramida mneniya (obshchestvennoye mneniye: priroda i funktsii). – M.: Znaniye, 1987;
2. Kilmetova R.R. Politiko-pravovyye ucheniya Nikkolo Makiavelli // Pravovoye gosudarstvo: teoriya i praktika № 4 (54) 2018 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/politiko-pravovye-ucheniya-nikkolo-makiavelli>;
3. Ougl M. Public opinion and Political dynamics. - Boston: 54--., 1950.p.40;
4. Lipman W. Public opinion. N.Y., etc, 1992. 96p;
5. Krasilnikova N.A. Obshchestvennoye mneniye kak predmet konitivno-diskursivnix issledovaniy v sfere politicheskoy lingvistiki // Politicheskaya lingvistika 2(36)'2011. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obshchestvennoe-mnenie-konitivno-diskursivnyh-issledovaniy-v-sfere-politicheskoy-lingvistiki-kak-predmet>
6. Popper K. Ochiq jamiyat va uning dushmanlari. – M., 1992, 43-bet;
7. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1991. – B. 53-54;
8. Temur Tuzuklar»i haqida.// URL: «<http://www.temurtuzuklari.uz/uz;>
9. Sociologicheskiye problemy izucheniya obshchestvennogo mneniya. Uchebno-metodicheskiy kompleks. Sostavitel d. sos.n., prof. L.N.Vdovichenko. Otvetstvennyy redaktor D.f.n., chl.-korr. RAN, prof. J.T.Тощуенко. Rossiyskiy gosudarstvennyy gumanitarnyy universitet, 2010. – С.7.
10. Bekmurodov M. Jamoatchilik fikrini o'rganishning tarixiy ildizlari // O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish metodikasi. – Toshkent, 2004. – B.94;
11. G'aniyeva M. Jamoatchilik fikri – Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning muhim mexanizmi. // Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. – Toshkent, 2017. № 3. OOO" ISHONCH". – B. 86-95;
12. Shaymanova A.E.-Jamoatchilik fikri: mazmuni, shakllanishi, mantig'i. URL:file:///C:/Users/User/Downloads/zhamoatchilik_fikri_mazmuni_shakllanishi_mantigi%20(1).pdf;
13. Ergasheva M. (2020). Jamoatchilik fikrining shakllanish jarayonlari va unga ta'sir etuvchi omillar.Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI, 1(74). URL: https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6519;